

ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN-NAFOIS” ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING DERIVATSION XUSUSIYATLARI

Nuriddinova Vazira Navruz qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi antroponimlarning derivatsion yasalishi haqida so‘z boradi. –iy, -duq, -zoda, -chi kabi affikslar bilan yasalgan taxalluslar, ot+ot, ot+sifat tipidagi qo‘shma ismlar hamda arabcha va forscha izofali qo‘shma ismlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: antroponim, qo‘sheimcha, taxallus, forscha izofa, arabcha izofa.

Navoiy asarlarida uchraydigan antroponimlarni tuzilishi jihatidan 3 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Tub nomlar
2. Yasama nomlar
3. Qo‘shma nomlar

Tub nomlar tuzilishiga ko‘ra sodda atoqli otlardir. Sodda onomatik birliklarga yasama onomastik nomlarni ham qo‘sish mumkin. Tub va yasama atamalar sodda so‘zlar bo‘lganligi uchun ular tuzilishi jihatdan umumiyligka ega. Biroq ularidan biri bo‘linmas asosdan iborat tub so‘zlar bo‘lsa, ikkinchisi asos va yasama morfemalardan tashkil bo‘lgan yasama so‘zlardir.

“Majolis un-nafois” tazkirasi tilida anchagina yasama nomlar mavjud bo‘lib, ular tub negizlarga qo‘sheimchalar qo‘sish orqali hosil qilingan. Kuzatishlarimiz yasama nomlar tarkibida quyidagi qo‘sheimchalar mavjudligini ko‘rsatdi:

-iy: o‘zbek va tojik mumtoz adabiyoti tilida taxallus yashashda eng mahsuldar qo‘sheimcha hisoblanadi. “Navoiyning “Tarixi muluki Ajam”, “Majolis un-nafois”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr” asarlarida taxalluslar ko‘p uchraydi. Bu XV asr hayoti uchun qonuniy bir hol edi”¹. Shoир asarlarida uchraydigan taxalluslarni ular ifodalagan ma’noga ko‘ra bir nechta turlarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Taxallus egasi yashab ijod etgan joyga nisbatan berilgan taxalluslar. Bunday taxalluslar shoirlar, olimlar, mutasavvuflarning qaysi yurtga mansub ekanligini ifoda etgan. Masalan, tadqiqot obyektimizda ushbu turdagи taxalluslar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: Mavlono Husayn Xorazmiy, Mavlono Sohib Balxiy, Mavlono Mir Qarshiy, Mavlono Hirotiy, Xoja Mas’ud Qumiy, Mavlono Ulo Shoshiy, Shayx Kamol Turbatiy, Mavlono Abdusamat Badaxshoniy, Mir Imad Mashhadiy, Mavlono Fasih Rumiy, Mavlono, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mavlono Shomiy, Shayx Nizomiy Ganjaviy, Sulton Malik Qoshg‘ariy, Zinda Fil Ahmad Jom, Hofiz Ali Jomiy kabi.

Navoiy ko‘pchilik uchun noma’lum bo‘lgan joy bilan bog‘liq taxalluslarni alohida izohlaydiki, bu bilan o‘quvchini ba’zi bir izlanishlardan ozod qiladi. Bunday taxalluslar Orif Farkatiy (Orif Farkatiy — Samarqand navohisining Farkat degan mavzuidundur), Mavlono Sofiy (Mavlono Sofiy — Ko‘hi Sof shayxzodalaridindur. Taxallusi ham anga dalolat qilur), Mavlono Joniy (Mavlono Joniy — jurjonlikdur. “Rayhoniy” taxallus qilur erdi, viloyati munosabati bila anga “Joniy” taxallus buyuruldi)…

2. Alisher Navoiy asarlarida qalamga olingan taxalluslarning bir qismi o‘sha shaxsning kasb-kori bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u nafaqat o‘sha odamning kasbi haqidagina ma’lumot berib qolmasdan, balki XV asrdagi kishilar shug‘ullangan kasblar haqida ham tarixiy ma’lumotlar olishga imkon beradi. Ikkinchi tomondan kishilarning o‘z kasbiga munosabatini ham ko‘rsatadi. “Majolis un-nafois” tazkirasida Mavlono Halvoiy, Saidzodai Munshiy, Mavlono Sharbatiy, Yomg‘urchibek Sipohiy, Mavlono Mahramiy, Mavlono Noibiy, MAvlono Kotibiy, Qozi Muhammad Imomiy kabi kasb-korga ishora qiluvchi taxalluslar uchraydi.

¹ Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi, nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 1994. 41-bet.

3. Osmon jismlari, sayyoralar va ularning harakatiga ishora qilish asosida tanlangan taxalluslar ham tadqiqot obyektimizda mavjud: Abdulvahhob Suhoiy, Shayxim Suhayliy, Mavlono Qironiy, Mavlono Nuriy, Mavlono Mushtariy, Mavlono Kavkabiy kabi.

4. O'simliklar, gullar va daraxtlar nomi bilan bog'liq bo'lgan taxalluslar: Mavlono Savsaniy, Mavlono Nargisiy, Mavlono Mirakiy (mirak – o'tloq, yaylov), Mavlono Hamidgul.

5. Diniy atamalar va afsonaviy kishilar, mavjudotlarning ismi bilan ataluvchi taxalluslar: Mavlono Jannatiy, Mavlono Vahdatiy, Mavlono Behishtiy, Mavlono Humoiy, Mavlono Kavsariy.

6. Insonning yoshi, faoliyati, qobiliyati, xislati, tashqi ko'rinishi bilan bog'liq taxalluslar: Mavlono Shabobiy, Mavlono Ziyorakiy, Mavlono Fig'oniy, Mavlono Zohidiy, Mavlono Jununiy, Darvesh Nozukiy, MAvlono Qobiliy, Mavlono Shavqiy, Mavlono Latifiy, Mavlono Shodiy, Mavlono Zuloliy, Mavlono Zeboiy.

7. Boshqa bir kishining nomiga taqlid qilib olingan taxalluslar: Mavlono Zamoniy (Badiuzzamon Mirzoga nisbatan olingan), Mavlono Majnuniy, Mavlono Xizriy.

8. Yer yuzidagi tuproq va qazilma boyliklarining turi bilan bog'liq bo'lgan taxalluslar: Shoh Badaxshon – La'liy.

9. Kunning ma'lum bir vaqt bilan bog'liq bo'lgan taxalluslar: Mir Haydar Sabuhiy, Mavlono Subhiy. -duq: Burunduq. "Mavlono Burunduq — nadimvash va hazzol kishi ermish..." (MN, 302). "Burunduq – o'zbek tilidagi qadimiyo so'zlardan biri bo'lib M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" kitobida jilov, no'xta deb izohlangan. "Attuhfa"da esa to'r no'xta deb izohlangan. Har ikkala muallif ham bu so'zni ot afzaliga kiritgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qopog'on tuya yoki itning tumshug'iga kiydirib qo'yiladigan maxsus to'r deb berilgan. Janubiy O'zbekiston va Tojikistonning etnik qatlamlarini chuqur o'rgangan B.X.Karmisheva o'zining tadqiqotlarida bu so'zni laqaylarning to'rtovul qabilasi tarkibiga kiruvchi urug' nomi sifatida bayon qilgan. Xullas, bu faktlar ushbu nomning uzoq davrlardan buyon turdosh so'z sifatida ishlatib kelinganligini ko'rsatadi. Biroq Navoiy va Bobur o'z asarlarida bu so'z kishining nomi sifatida uchraydi va u bizning fikrimizcha, sadoqatli, mehr-oqibatli, vafodor ma'nolarini anglatadi"².

-chi: Yomg'urchibek. Yomg'urchibek – yog' fe'liga –mur qo'shimchasi qo'shib hosil qilingan. Bu yerda yonma-yon kelgan ikki tovushning o'rin almashinishi hodisasi ro'y bergan: yog'-mur-chi-bek.

-zoda. Forscha zod, zoda so'zlaridan yasalgan bo'lib, "tug'ilgan avlod, bola" ma'nolarini anglatadi. Tazkiradagi Sayidzodai Munshiy, Shayxzoda Puroniy, Shayxzodai Ansoriy, Shayxzoda Muhammad kabi antroponomiklar tarkibida –zoda affksi qo'llangan.

O'zbek onomastikasi qo'shma ismlar tuzilishi, komponentlar tarkibi, morfologik va sintaktik xususiyatlariga ko'ra xilma-xil, boy lingistik belgilarga egadir³. E.Begmatovning nomzodlik dissertatsiyasidagi kishi nomlarining sintaktik usulda yasalishi haqida o'rganganimizdan so'ng tadqiqot obyektimizdag'i qo'shma nomlarni ham tahlil qildik va kuzatishlarimiz tazkirada ot+ot hamda ot+sifat tipidagi qo'shma ismlar ishtirok etganligini ko'rsatdi:

Ot+ot tipi: Hasanshoh, Hamidgul, Sultonshoh, Davlatshoh, Qulmuhammad, Umarshayx, Jahonshoh.

Ot+sifat tipi: Ne'matobodiy.

"Kishi nomlari uchun asos bo'lgan so'zlarning ko'pi adabiy stilga xos leksema va konstruksiyalardir. Buni ko'pgina qo'shma ismlar komponentlarining forscha hamda arabcha izofaga egaligi ham yorqin ko'rsata oladi. O'zbek tilidagi izofa vositasida birikkan qo'shma ismlarni ularning hozirgi shakliy ko'rinishiga qarab ikki gruppaga bo'lish lozimligini taqozo qiladi:

a) izofali qo'shma ismlar;

b) aslida izofali bo'lgan qo'shma ismlar.

Izofali qo'shma ismlar. O'zbekcha izofali qo'shma ismlar komponenti ikki xil izofa vositasida bog'langandir: forscha izofa va arabcha izofa.

Forscha izofali qo'shma so'z va atoqli otlar o'zbek tilida ancha davrlardan beri mavjuddir. O'zbek onomastikasi faktlari o'zbek tiliga fors-tojik tilining ta'siri hamda o'zbek tilidagi forscha izofalar to'g'risidagi tasavvurni yanada kengaytirishi mumkin. Hozirgi zamon o'zbek tilidagi ko'pgina qo'shma ismlar tuzilish xususiyatiga ko'ra forscha izofa –i vositasida birikkandir. Masalan: Mohistara, Shamsinur, Mohipari,

² Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi, nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 1994. 84-bet.

³ Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. Filologiya fanlari nomzodi... dis./ - Toshkent, 1965. 304-bet.

Qumriniso...”⁴. Bu tarzdagi forscha izofali atoqli otlar bizning tadqiqot obyektimizda Mavlono Sharifi Bog‘i Shahriy, Shoh Quli Uyg‘ur, Hazrati Amir Qosim Anvor, Hazrati Mavlono Jaloliddin Rumiy, Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy kabi antroponimlar tarkibida uchraydi.

“Arabcha abd (qul) so‘zi o‘zbek tilidagi qo‘shma ismlar tarkibida ikki shaklda uchraydi: abdi, abdu. Abd so‘zining qo‘shma ism tarkibida abdi tarzida mavjudligi bu qo‘shma otning forscha konstruksiya ekanligidan dalolat beradi. Chunki abd so‘zidan keyin forscha izofa qo‘shimchasi –i kelgandir: abd+i singari”⁵. Bu tarzda yasalgan atoqli otlar tazkirada uchramaydi. Abd+u konstruksiyali atoqli otlar esa “Majolis un-nafois”da talaygina: Abdulloh, Abdulvafo, Abdusamad, Abdurazzoq, Abdulqahhor, Abdulvahhob, Abdulhaq, Abduqodir, Abdullatif, Abdulvose’, Abdulrahim kabi.

“Arabcha izofali qo‘shma so‘zlar arab tilining grammatic qonuniyatları asosida yasalgan arabcha konstruksiyalar bo‘lib, so‘z komponentlari maxsus artikllar (al) va undan kontekstga qarab tug‘iluvchi: -ul, -at, -ad, -an, -ud, -in, -id va b. yordamida o‘zaro bog‘lanadi va o‘z struktural xususiyatlariga ko‘ra forscha izofalarga o‘xshashdir. Masalan, Sayfuddin, Karimulla, Nuriddin, Ziyovuddin”⁶. Arabcha izofali qo‘shma ismlar ham tadqiqot obyektimizda anchagina qismni tashkil qiladi, jumladan, Ismatulloh, Abulhasan, Sharafiddin, Abullaysiy, Sadriddin, Nuriddin, Majdiddin, Faxriddin, Asiriddin, G‘iyosiddin, Jaloliddin, Asadulloh, Ahadulloh, Ixtiyoriddin, Nizomiddin, Burhoniddin, Atoulloh, Kamoliddin, Afzaliddin, Abulbaraka, Alouddavla, Qutbiddin, Habibulloh, Nosiriddin, Abusaid, Sa’diddin, Farididdin, Bahouddin, Badiuzzamon, Rukniddin, Fazlulloh, Shamsiddin kabi.

Demak, “Majolis un-nafois” tazkirasidagi antroponimlar yasalishi jihatdan rang-barang ekanligi XV asrda shaxs nomlash an'analarining yaqqol ifodachisi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi, nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 1994.
2. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. Filologiya fanlari nomzodi... dis./ - Toshkent, 1965.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan.
4. T. 1. 1983. – 656 b.
5. T. 2. 1983. – 644 b.
6. T. 3. 1984. – 624 b.
7. T. 4. 1985. – 636 b.
8. Alisher Navoiy Asarlar 15 tomlik 12-tom. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
9. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami 20 tomlik 13-tom. – T.: Fan, 1997.
10. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami 20 tomlik 18-tom. – T.: Fan, 2001.
11. Alisher Navoiy To‘la asarlar to‘plami 10 jildlik 9-jild. – T., 2012.

⁴ O‘sha asar. 314-bet.

⁵ O‘sha asar. 314-bet.

⁶ O‘sha asar. 315-bet.